

O'ZBEK TILINING NUTQ USLUBLARI

Qahhorova Jannatoy Hasanboy qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Filologiya fakulteti

o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2- bosqich 201- guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilining nutq uslublari haqida ma'lumotlar yoritib berilgan.*

Абстрактный: *В данной статье представлена информация о стилях речи узбекского языка.*

Abstrakt: *This article provided information about speech styles of the Uzbek language.*

Kalit so'zlar: *uslublar, so'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, badiiy uslub, rasmiy uslub, ilmiy uslub.*

Ключевые слова: *стили, разговорный стиль, публицистический стиль, художественный стиль, формальный стиль, научный стиль.*

Key words: *Styles, conversational styles, journalistic styles, artistic styles, formal styles, scientific styles.*

Til keng imkoniyatlarga ega. U nutq sharoiti, qo'yilgan maqsadi, qo'llanish doirasi, muloqot qiluvchilarning kimligiga qarab turlicha voqealanadi. Bunda tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vaziyatlarga ko'ra ajratilishi nutq uslubi deyiladi.

Kishilar faoliyatining barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatish bir-birlaridan farq qiladi. Umumxalq tili doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutq uslubi tilning vazifasi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham ular vazifaviy uslub deb yuritiladi.

Vazifaviy uslub nutq ko'rinishlarining asosiy vazifalariga, ya'ni aloqa, xabar berish, ta'sir etish vositasi bo'lishiga ko'ra turli qismlarga bo'linadi. Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: so'zlashuv uslubi, publitsistik uslub, badiiy uslub, rasmiy uslub va ilmiy uslub. Nutq uslublari maqsadiga ko'ra nomlangan.

So'zlashuv uslubi insonlarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida, ya'ni oilada, ko'cha - ko'yda fikr almashinuvi vaqtida

foydalaniladigan nutq uslubi hisoblanadi. So‘zlashuv uslubida so‘zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli so‘zlardangina foydalanadi.

Publitsistik uslub axborot berishga xoslangan ommaviy axborot vositalari uslubidir. Bu uslub ijtimoiy - siyosiy adabiyotlarda, vaqtli matbuotda , siyosiy chiqishlarda , majlislaridagi nutqlar va shu kabilarda o‘z ifodasini topadi.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya’ni badiiy asarlarga mos bo‘lib , ekpressiv va tasviriy vositalarning ko‘p ishlatilishi, so‘zlarning obrazli qo‘llanishi kabi belgilar bilan ajralib turadi. Masalan, Kuz kunlarining oyog‘i qish kunlarining boshi edi. Daraxtlarning sariq barglari to‘kilib , yer yuzi o‘zining qishki sariq kiyimini kiygan edi.

Rasmiy uslub huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo‘llanuvchi nutq uslubi hisoblanadi. Bu uslub har qanday tasviriy vositalardan , obrazlilikdan xoli bo‘ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi- axborot uzatish va da’vat etish , buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, Abror Azizov marketing bo‘limi boshlig‘i vazifasiga tayinlansin.

Ilmiy uslub ilm- fan sohasida qo‘llaniluvchi nutq uslubidir. Ilmiy uslub daliliy ma’lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga ega bo‘lish, atamalarining keng qo‘llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

Xulasa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek tilini nutq uslublarining har biri muhim ahamiyatga ega. Nutq uslublari turli vaziyatlarga moslashish uchun yordam beradi . Ularni o‘rganish va tahlil qilish soha vakillari uchun zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/ H.Jamolxonov .- To.<<Talqin>>, 2005
2. D.Sotiboldiyeva ,, Leksikologiya ’’ o‘quv qo‘llanma.
3. M.Arabboyeva . ,,Ona tili darslari milliy dastur talablari asosida tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida’’ maqolasi / Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi,2023 Nō 7, 718-725.